

IQTISODIYOTGA FAOL INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA XORIJ TAJRIBASI

Bakiyeva Iroda Abdushukurovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda erkin iqtisodiy zonalar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va eksportni rag'batlantirishning muhim omili sifatida hududlarni shuningdek, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish sur'atini jadal tezlashtiruvchi “akselerator” vazifasini o'tashi to'g'risida nazariy hamda amaliy ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Erkin iqtisodiy zona, Kichik sanoat zonasi, Texnopark, Maxsus ilmiy-texnologik zona, Klaster, Maxsus sanoat zonasi, Erkin savdo zonalari.

Аннотация: В данной статье в целях обеспечения устойчивого экономического роста в развивающихся странах свободные экономические зоны служат «ускорителем», ускоряющим темпы экономического и социального развития регионов и страны, как важным фактором привлечения иностранных инвестиций и стимулирование экспорта теоретическая и практическая информация о.

Ключевые слова: Свободная экономическая зона, Малая индустриальная зона, Технопарк, Особая научно-технологическая зона, Кластер, Особая индустриальная зона, Зоны свободной торговли.

Kirish

Butun dunyo tajribasiga ko'ra Erkin iqtisodiy zonalarni barpo etish birinchidan mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishi, ikkinchidan mamlakatda raqobatbardoshlik muhitini yaxshilashi, uchinchidan aholi bandligini oshirish yangi ish o'rinlarini yuzaga keltirish, to'rtinchidan mamlakat eksport hajmini oshirib, import hajmini kamaytirish, beshinchidan hududlarning ilmiy-texnik salohiyatini yaxshilash hamda yangidan-yangi tarmoqlarni tashkil etish, oltinchidan chet el investitsiyalari hajmini oshirish imkoniyatini beruvchi eng samarali vositalardab biri

boʻlib xizmat qiladi. Bu esa erkin qitisodiy zonalarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy poydevori ekenligidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2018 yildagi PF-5600-sonli “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari toʻgʻrisida” gi farmoniga koʻra Erkin iqtisodiy zona, Kichik sanoat zonasi, Texnopark, Maxsus ilmiy-texnologik zona, Klaster, Maxsus sanoat zonasi, Erkin savdo zonalariga quyidagicha taʼrif berilgan:

Erkin iqtisodiy zona – yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import oʻrnini bosuvchi, eksportga yoʻnaltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni oʻzlashtirishga faol jalb etish, shuningdek, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yoʻl-transporti, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni taʼminlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud.

Kichik sanoat zonasi – aniq yer uchastkasini oʻz ichiga olgan hudud boʻlib, baʼzi hollarda – muhandislik-texnik kommunikatsiyalar bilan taʼminlangan ishlab chiqarish maydonlari.

Texnopark – oʻzaro, davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari bilan hamkorlik qiluvchi, tadbirkorlik, investitsiya faoliyatini va ilmiy faoliyatni yuritish maqsadida zamonaviy texnologik va tashkiliy muhitni shakllantiruvchi ilm-fan va taʼlimning tijorat va notijorat tashkilotlari, moliya institutlari va tadbirkorlarning integratsiyalashuvi shakli.

Klaster – meva-sabzavot va qishloq xoʻjaligi resurslarini yetishtirish va chuqur qayta ishlash, chorvachilik, baliqchilik va boshqa komplekslarni yaratish, raqobatbardosh yuqori texnologiyali va eksportbop toʻqimachilik, oziq-ovqat va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish shakli.

Maxsus ilmiy-texnologik zona – innovatsiya infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlarida ilmiy tashkilotlar va ilmiy faoliyat sohasidagi boshqa tashkilotlar (texnologik parklar, texnologiyalarni tarqatish (texnologiyalar transferi) markazlari,


innovatsion klasterlar, venchur fondlari, biznes-inkubatorlar va boshqalar) to‘plangan hudud.

Maxsus sanoat zonasi – boshqaruv, xo‘jalik va moliyaviy faoliyatning alohida rejimi joriy etiladigan hudud. Maxsus sanoat zonalari zarur ma‘muriy, ilmiy-texnologik, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transporti va ijtimoiy infratuzilmani barpo etish uchun yer uchastkalarini ajratish orqali shakllantiriladigan xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish zonalarini o‘z ichiga oladi.

Erkin savdo zonalari konsignatsiya omborlarini, maxsus bojxona va soliq rejimlari bo‘lgan hududlarni, shuningdek tovarlarga ishlov berish, ularni o‘rab-joylash, saralash, saqlash uchun maydonchalarni o‘z ichiga oladi

Tahlil va natijalar

2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra ishtirokchisi mavjud jami **21** ta maxsus iqtisodiy zona (MIZ), **328** ta kichik sanoat zonasi (KSZ), **23** ta texnopark hamda **437** ta klasterlar (klaster) mavjud bo‘lib, ularning tarkibidagi korxonalar soni MIZda **768** tani, KSZda **2 494** tani, texnoparklarda **1 694** tani va klasterlarda **440** tani tashkil etdi.



**1-rasm. MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar va ularning ishtirokchilari soni
2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra¹**

¹ <https://stat.uz/img/zb.pdf>- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi jami – 11 573,5 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan: MIZda 6 269,6 mlrd. so‘mni, KSZda – 1 038,6 mlrd. so‘mni, texnopark – 681,0 mlrd. so‘mni va klasterlarda – 3 584,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 7 621,5 mlrd. so‘mni, tashkil etdi, shundan: MIZda – 3735,0 mlrd. so‘m, KSZda – 1 663,6 mlrd. so‘m, texnoparklarda – 156,4 mlrd. so‘m va klasterlarda – 2 066,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich taqqoslama davr bilan solishtirganda 65,8 % ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar

Erkin iqtisodiy zonalar asosiy mohiyati mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ichki va tashqi kapitalni, istiqbolli texnologiyalar va boshqaruvga oid tajribalarni jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma‘muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududlarni anglatadi. O‘zbekiston sharoita EIZlar tashkil qilishga bo‘lgan xarakterlar va hozirgi kundagi istiqbolli rejalar juda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonning iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va ayrim nozik jihatlarni hisobga olgan holda EIZlarning tashkil etilishi kelajakdagi yutuqlarga padevor bo‘lib xizmat qiladi. EIZlar tashkil qilishdan turli mamlakatlar turlicha maqsadlarni ko‘zlaydilar. EIZni tashkil etishdan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

- mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyasini jalb etish, ayniqsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay imkoniyat;
- xorijiy investorlar ishtirokida mamlakat tadbirkorlari bilan birgalikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va uning natijasida tovar va xizmatlar eksporti hajmini oshirish;
- mamlakatning ichki bozoriga yuqori sifatli mahsulotlar va xizmatlar, yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelishi va tadbiiq qilinishini ta‘minlash;

Jahon xo'jaligida maxsus iqtisodiy hududlarning shakllanishi, ya'ni tashkil qilish va jahon xo'jaligida maxsus iqtisodiy hududlar faoliyatini rivojlantirish orqali tarqqiyotga erishish va milliy iqtisodiyot yuksalishida tashqi savdo-sotiq siyosatini ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish, uning ijobiy tomonlarini umumlashtirish asosida O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish va uni rivojlantirish istiqbollari, hamda maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etishdagi jahon tajribasidan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari borasida quyidagi takliflarni bildirib o'tamiz: EIZlardagi xalaro intermodal logistik habning imkoniyatlarini yanada kengaytirish va hududning sanoat ishlab chiqarish hududida jahon standartlariga javob beradigan va raqobatga dosh beradigan eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish, hamda import o'rnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish eng ustivor vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va EIZlarning faoliyatini rivojlantirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar muhim hisoblanadi:

- soliq mexanizmini yanada yengillashtirish (soliq stavkalarini pasaytirish, ba'zi faoliyat turlari uchun soliq stavkasini kamaytirish);
- moliya-kredit mexanizmini yaxshilash (MIZ rezidentlari uchun davlat tomonidan subsidiyalar ajratish, MIZ rezidentlari uchun kredit foiz stavkalarini pasaytirish);
- logistika tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilish;
- EIZ rezidentlari uchun imtiyoz muddatini uzaytirish;
- eksport bilan bog'liq munosabatlarda davlat tomonidan yordam ko'rsatish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2018 yildagi PF-5600-sonli “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida” gi farmoniga
2. Xujamkulov D.Y. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. –T.: IQTISODIYOT, 2019. – 408 b.
3. J.R.Zaynalov ,S.S.Aliyeva,N.X.Ruzibayeva.Darslik/Investitsiya, 2020- 480 b.
4. Karimqulov J.I. Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo‘nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati – T.: BMA, 2019. – 13 b.
5. Shirinov, U. (2023). IMPROVING SEGMENT ANALYSIS IN COMMUNICATION ENTERPRISES. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 211-217.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy internet sahifasi – www.stat.uz.